



AYOLLARNING HUQUQIY HIMOYASI: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR UYG'UNLIGI

Hayitova Setora Sherzod qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“tergov faoliyati” yo‘nalishi
talabasi

sitorahayitova979@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19549782>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollarning huquqiy himoyasi masalasi milliy qonunchilik va xalqaro standartlar uyg'unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, qabul qilinayotgan qonun va farmonlar, shuningdek, ayollar huquqlarini mustahkamlashga xizmat qilayotgan institutsional mexanizmlar yoritiladi. Statistik ma'lumotlar asosida ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi ishtiroki tahlil qilinib, huquqiy normalarning amaliy ijrosi bilan bog'liq dolzarb muammolarga e'tibor qaratiladi.


Kalit so'zlar: ayollar huquqlari, huquqiy himoya, gender tenglik, milliy qonunchilik, xalqaro standartlar.

Annotation: This article analyzes the legal protection of women in the context of harmonization between national legislation and international standards. It examines state policies, adopted laws and decrees in Uzbekistan, as well as institutional mechanisms aimed at ensuring gender equality. Based on statistical data, the article highlights women's participation in social, political, and economic life and identifies key challenges in the implementation of legal norms.

Keywords: women's rights, legal protection, gender equality, national legislation, international standards.

Аннотация: В статье рассматривается правовая защита женщин в контексте гармонизации национального законодательства с международными стандартами. Анализируются государственная политика, принятые законы и указы в Республике Узбекистан, а также механизмы, направленные на обеспечение гендерного равенства. На основе статистических данных раскрывается участие женщин в общественной, политической и экономической жизни и обозначаются основные проблемы реализации правовых норм.

Ключевые слова: права женщин, правовая защита, гендерное равенство, национальное законодательство, международные стандарты.





Ilmiy manbalar va tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarga bo'lgan munosabat jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud siyosiy tuzumlar, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy qarashlar ta'sirida shakllanib kelgan. Ayrim davrlarda ayollar faol ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, boshqa bir bosqichlarda ularning huquq va imkoniyatlari muayyan cheklovlar doirasida qolgan. Shunga qaramasdan, o'zbek xotin-qizlari har qanday tarixiy sharoitda ham o'z qadr-qimmatini saqlab, jamiyat hayotida munosib o'rin egallab kelgan. O'zbek ayollari nafaqat oila va tarbiya masalalarida, balki ilm-fan, ma'naviyat va madaniyat rivojida ham muhim o'rin tutgan. Ular yetuk allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazish orqali nafaqat milliy, balki umuminsoniy taraqqiyotga salmoqli hissa qo'shgan. Bunday fidokor va ma'rifatparvar ayollar timsolida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Tarixiy manbalarda nomi ehtirom bilan tilga olinadigan oqila va fozila ayollar o'z zamonasining ma'naviy tayanchi bo'lgan. Ularning sabr-toqati, aqli va tarbiyaviy salohiyati natijasida jahon ilm-fani va ma'naviyatiga ulkan hissa qo'shgan shaxslar yetishib chiqqan. Ana shu jihatdan, o'zbek xotin-qizlarining tarixiy va ijtimoiy roli milliy merosimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda ayollarning huquqiy himoyasini ta'minlash davlat siyosati samaradorligini belgilab beruvchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inson huquqlarini ustuvor qo'yayotgan demokratik jamiyatlarda gender tenglik masalasi milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan shu yo'nalishga qaratilgan bo'lib, ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ayollarning jamiyatdagi o'rni haqida so'z yuritir ekan, **"Biz hayotimizning ma'no-mazmunini, butun borlig'imizni ayollarsiz tasavvur eta olmaymiz"**, deya ta'kidlagani ayollarga bo'lgan davlat darajasidagi munosabatni yaqqol ifodalaydi. Ushbu yondashuv inson manfaatlarini islohotlarning asosiy mezon sifatida belgilash tamoyili bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur siyosiy iroda natijasida ayollarning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan mustahkam normativ-huquqiy baza shakllantirildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda milliy qonunchilik





xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilib, 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, **“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun**, shuningdek, **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun** ayollarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hujjatlar mazmunan xalqaro standartlar, xususan gender tenglik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Ayniqsa, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasi, ehtiyojmand ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan sa‘y-harakatlar izchil va tizimli ravishda davom ettirilayotgani e‘tirofga loyiq. Bu borada **huquqshunos olimi M. Farxutdinovanning ta‘kidlashicha, “Aslida gender tenglik xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ifodalovchi insonning eng muhim tabiiy huquqlaridan biridir. Chunki gender tenglikni ta‘minlanishi orqali ayollarning shaxsiy erkinligi va daxlsizligi ta‘minlanadi hamda ayollarga ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o‘zini namoyon qilish imkoniyati kafolatlanadi”**.

Mamlakatda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida ham aniq natijalarga erishilmoqda. Xususan, saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan nomzodlarning kamida 40 foizi ayollardan iborat bo‘lishi belgilab qo‘yildi. Natijada parlamentda ayollar ulushi 32 foizga yetdi. Bu ko‘rsatkich xalqaro amaliyotda ham ijobiy baholanadigan darajalardan biri hisoblanadi.

Statistik ma‘lumotlar ayollarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki ham sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Xususan, 2024 yilga kelib rahbarlik lavozimlariga zaxiraga olingan ayollar soni 25 ming nafardan oshgan. Tadbirkorlik sohasida esa 205 mingdan ortiq xotin-qiz o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, kichik biznes subyektlarining salmoqli qismini aynan ayollar boshqarmoqda. Birgina 2024 yil boshidan 130 mingdan ortiq tadbirkorlik loyihalariga 2,6 trillion so‘mdan ziyod kreditlar ajratilgani ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash nafaqat ularning shaxsiy farovonligini ta‘minlash, balki ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va kelajak avlod kamolotiga ta‘sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bunday himoya, ayniqsa, nogironligi bor, kam ta‘minlangan va ehtiyojmand xotin-qizlar uchun juda muhim. Chunki kuchli ijtimoiy himoya bolalarning sog‘lom ulg‘ayishi, onalik muhofazasi hamda oilalarda barqaror muhit yaratilishiga yordam beradi. Xalqaro





tadqiqotlarga ko'ra, ayollarga ko'proq imkoniyatlar yaratilgan jamiyatlarda bolalar o'limi kamayib, oilalar turmush farovonligi ortishi kuzatiladi.

Yurtimizda bu boradagi natijalar ham quvonarli: mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalariga ko'maklashish, ijtimoiy yordamni adolatli, aniq manzilli hamda shaffof tarzda tashkil etish maqsadida **“Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”** kabi mutlaqo yangi va o'ziga xos mexanizmlar yaratilgani mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu daftarlar orqali ehtiyojmand fuqarolarni aniqlash, ularga maqsadli yordam ko'rsatish va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina “Ayollar daftari” tizimi orqali 2021–2024 yillar davomida 3 154 941 nafar xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatildi. Mazkur daftarga kiritilgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 5 trln 601 mlrd so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.

Xotin-qizlar huquqlarini muhofaza qilish — prokuratura organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Yuqoridagi islohotlar jarayonida prokuratura organlarining tutgan o'rni ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga asosan prokuratura organlari tizimida 18 nafar shtat birligidan iborat Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi tashkil etildi. Ayni paytda mazkur bo'lim faoliyati to'liq yo'lga qo'yilib, sohada qonuniylikni ta'minlashning barcha choralari ko'rilmogda. Faqatgina 2024 yilning o'zida prokurorlar tomonidan 76 845 nafar xotin-qizga ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda amaliy yordam ko'rsatildi. Xususan, 28 394 nafar ayol bir martalik moliyaviy ko'mak sifatida jami 29 milliard so'm yordam oldi, 320 nafar xotin-qiz uy-joy sotib olish uchun 8,6 milliard so'mlik subsidiya bilan ta'minlandi, 499 nafarining esa turar joylari kapital ta'mirlab berildi.

Yutuqlar bilan har qancha faxrlansak-da, O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, hali ham hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar saqlanib qolayotgani ayni haqiqatdir.

Birinchidan, so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash maqsadida 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Parlamentda xotin-qizlar soni 32 foizga yetib, dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'rinni egalladi. Shu bilan birga, boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushi 27 foizni tashkil etmoqda. Mazkur





ko'rsatkichlar ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatsa-da, rahbarlik lavozimlarida ayollarning ishtiroki hali ham yetarli darajada emas.

Ikkinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi ulushi 35 foizni tashkil etsa-da, qishloq joylarida ayollar uchun munosib ish o'rinlarini yaratish va ularning iqtisodiy faolligini oshirish borasidagi muammolar saqlanib qolmoqda. Ayollarning yer va mulkka egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlar ulushi 40 foizga yetgan bo'lsa-da, ularning muhandislik, axborot texnologiyalari va huquqshunoslik kabi sohalardagi ishtiroki past darajada qolmoqda. Ushbu sohalarda ayollarning ulushini oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish lozim.


To'rtinchidan, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari hanuzgacha dolzarb muammo bo'lib, uning oldini olish va jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Bu borada xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikni xalqaro me'yorlarga muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, jamiyatda ayollar va erkaklar rollari bo'yicha an'anaviy qarashlar saqlanib qolmoqda, bu esa gender tenglikka erishishda to'siq bo'lib qolmoqda. Ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari orqali gender tenglikni targ'ib qilish ishlarini kuchaytirish mazkur qarashlarni o'zgartirishga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ayollarning huquqiy himoyasi sohasida milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o'rtasida muayyan uyg'unlikka erishilgan. Biroq mazkur uyg'unlikni yanada mustahkamlash uchun qonunlarning amalda ijrosini kuchaytirish, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va ijtimoiy ongni o'zgartirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni davom ettirish zarur. Aynan shu yondashuv ayollarning huquq va erkinliklarini real hayotda to'liq ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. Internet manbasi: <https://president.uz/uz/lists/view/7076>
2. United Nations (2022). International Women's Day. [online] United Nations. Available at: <https://www.un.org/en/observances/womens-day>.
3. Statistika qo'mitasi matbuot xabarlar — xotin-qizlar boshqaruvidagi tadbirkorlik subyektlari statistikasi: <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/63389-tadbirkor-ajollar>





4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son.
5. „Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women“. www.un.org. <https://lex.uz/docs/2655293>

